

O'QUVCHILARNING TASAVVUR OLAMINI KENGAYTIRISHDA BADIY ASARNING O'RNI

Ermo'minova Aziza Safarovna

*Toshkent shahar Olmazor tumanidagi
133-maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Kitob insoniyatning eng buyuk ixtirosi bo'lib, unda o'quvchi, kitobxon uchun yangi olam kashf etadi. Sargushat asarlar o'quvchining hayot olamini boyitsa, tarixiy asarlar o'tmishga qiziqish, ajdodlarga ehtirom, faxrlanish tuyg'usini shakllantiradi. O'quvchilar qalbida kitobga yoshlikdan munosabat uyg'otish ota-onalar oldidagi, o'qituvchilar oldidagi eng mas'uliyatli ishdir. Shunday ekan, bolaga rasmiy kitoblar olib berish, ertaklar o'qib, she'rlar yodlatish oiladagilar uchun kundalik ehtiyojga aylansin.*

Key words: *Insonning mustaqil va tanqidiy baholay olish qobiliyati murakkab ko'rinishga ega bo'lganligi sababli adabiyot o'qituvchilarining ishida asosiy yo'nalishlardan biri o'quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlay olish malakalarini tarkib toptirish bo'lishi lozim.*

Psixolog olim E.G'oziyev o'smirning aqliy kamoloti haqida gapira turib shunday fikrlarni bayon etadi: "O'smirning eng muhim xususiyatlaridan yana biri mustaqil fikrlash, aqlning tanqidiyligi tez rivojlanishidir. Bu esa kichik maktab yoshidagilardan farqli ravishda o'smirning aqliy kamolotida yangi davr boshlanganligini bildiradi.

Ko'rinib turibdiki, bolalarning o'smirlik yoshidagi aqliy kamolotida boshlangan yangi davrdan foydalanib, umumta'lim maktabi o'quvchilarining mustaqil fikrlashini shakllantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Mustaqil fikrlash ko'nikmasiga ega o'quvchilar esa jahonda tarqalayotgan har bir axborotni mushohada etib, tanqidiy tahlil etib, tegishli xulosalarni bemalol ajratib oladilar.

Umumiy o'rta ta'lim tizimi o'quvchilarida mustaqil fikr va tanqidiy tafakkurni shakllantirishda adabiyot o'quv fanlari orasida o'ziga xos o'rin tutadi.

Gap shundaki, maktabdagi boshqa o'quv fanlari bo'yicha o'quvchilar turli yo'llar bilan avvaldan ma'lum bo'lgan bitta yechimga, yagona haqiqatga keladi. Adabiy ta'limda esa o'quvchilar oldiga qo'yilgan masala yuzasidan mustaqil mulohaza yuritib, har biri o'z yo'li bilan o'zining haqiqatini kashf etadi. Boshqa barcha o'quv fanlari bo'yicha haqiqat yagona, adabiy ta'limda esa haqiqat turfa bo'ladi.

Shuning uchun ham adabiyot darslarida o'quvchilarni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning ilmiy-metodik asoslarini belgilash, uni tashkil etish yo'llarini ishlab chiqish alohida dolzarblik kasb etadi. Adabiyot fanini o'qitishdan maqsad o'quvchilarni badiiy asarni idrok etishga, anglashga, undan estetik zavq olishga yo'llashdan iborat. Adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, estetik tamoyillarga tayanib tahlil yuritish vositasida o'quvchilarning ijodiy qobiliyati tarbiyalanadi, bilimlarni egallash jarayonida tafakkuri

takomillashadi. Ayni paytda, adabiy qahramonlar, hayotiy hodisalarni kuzatib, inson shaxsi va ma'naviyati to'g'risida mustaqil fikrlaydilar, hayotiy saboq oladilar, xulosa chiqarishga o'rganadilar.

Zero, bola bo'sh vaqtini uyali aloqa vositasi bilan emas, kitob o'qish bilan o'tkazishga o'zida ehtiyoj sezsin. Kattalarning bolalarga o'rnak bo'lishi, kitobga muxabbat oiladan boshlanishi shart va zarurdir.

Bola hayolot olamini boyitishda asarlar asosida tayyorlangan filmlar ham muhim rol o'ynaydi. Bola ko'z bilan ko'rib, hayolida asar qahramonlari bilan sirlasha olsa, o'sha o'quvchida kitobga muxabbat ortadi.

Safo Matchon: "Kitobxonlik - o'qilgan kitoblar soni bilan belgilanmaydi, balki u tushunib o'qish, ya'ni maqsadli o'qishdir. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, kitobxonning yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrini nechog'li uqishini, ya'ni asar «tili»ga tushinishi kitobxonlik madaniyati, talanti darajasi ko'rsatadi. Shu tufayli adabiyotimiz talantli yozuvchilar bilan birga talantli kitobxonlarga ham hamisha ehtiyoj sezadi». Uning fikricha kitobxonlik talanti tug'ma emas, balki tarbiya vositasida kamol topadi. Kitobxonlik haqida gap ketganda, olmon mutafakkiri Gyotening quyidagi fikrini keltirish joizdir: «Kitobxonlikka o'rganish uchun qanchalik ko'p vaqt sarf qilinishini odamlar tasavvur qilmaydilar, buning uchun men hayotimning 80 yilini bag'ishladim, lekin hali ham o'rgandim, deb ayta olmayman». Professor V.F.Asmus o'zining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta'rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir ko'zadan ikkinchi ko'zaga kuyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi».

«Taraqqiy etgan xorijiy mamlakatlarda,- deb yozadi H.To'xtaboyev,- kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir»

Har bir xonadonda gazeta va jurnallar bo'lishi oila davrasida o'qilib, muhokama qilinishi bola shaxsida kitobga, badiiy asarga qiziqish tuyg'usini orttiradi. Dars jarayonida o'qituvchi asardagi eng qiziq o'rinlarni o'qib, o'quvchini manbani topib o'qishi uchun ilhom bera olishi kerak.

Badiiy asar o'quvchi shaxsida muomala madaniyat, odob-axloqni o'rgatadi. Muhammad Yusuf she'rlarida Vatanni qanday sevish, anglash tuyg'usi, A. Qodiriy asarlari asosida milliy mentalitetni o'rganish tuyg'usini o'quvchilar qalbiga yetkaza olsak, biz o'quvchida Vatanga muhabbat, ona xalqimiz an'analariga ehtiromlar tuyg'usini shakllantira olgan bo'lamiz.

O'quvchilarga kitobdan ko'proq foydalanishga, turli adabiyotlarni o'qib, dunyoqarashini kengaytirib, tafakkurini rivojlantirishga undashimiz lozim. Bu ishni otalar bilan birga amalga oshirsak, nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Kitobxonlikning o'quvchilar o'rtasida keng targ'ib qilinishi ularning nafaqat ma'naviyatli bo'lishiga, balki turli qo'shimcha bilimlarni ham o'zlashtirishga hizmat qiladi.

Kitobxonlar uchun konkret narsani obrazli fikrlash xarakterlidir, o'qish davomida shu obrazli fikrlash orqali ularning tushunchalari o'sib boradi. Bu yoshda bolani kitobning yozishi masalaning qo'yilishi emas, kitobdagi obraz, voqea va hodisa qiziqtiradi. Tarbiyachi kitobxonlarning qiziqishlarini shakllantirishi va rivojlantirish ular o'qishga rahbarlik qilishi, haqiqiy kitobxonlar bilan til topishib ishlashi lozim. Biz bu yerda alohida kitobxonlarga ta'rif berdik xolos. Bolalar o'qishni sifatli ravishda tashkil etish va ularni davr talabiga javob bera oladigan kishilar qilib tarbiyalash uchun, avvalo ularni har tomonlama o'rganish lozim. Ba'zi bolalar haqiqiy kitobsevar bo'lsa, boshqalari esa o'qishni yoqtirmaydilar. Shunga qaramay, barcha bolalarni ham kitob mutolaasiga qiziqtirish mumkin.

Dars jarayonida kitob o'quvchining eng yaqin do'sti, sirdoshi, yordamchisi bo'la olishiga erishish o'quvchi kitobxonligini yanada oshirishga xizmat qiladi. O'quvchi kitobni do'sti sifatida ko'ra boshlagan paytdan boshlab, uning ma'naviyati yuksala boradi. Zero, shoir aytganidek, "Kitobdan yaxshiroq do'st yo'qdir jahonda" Tarixiy voqealar haqida ko'proq kitoblar nashr ettirish, kitoblarni rasmlar bilan boyitish va ulardan dars jarayonida foydalanish o'quvchilar savodxonligini oshiradi va tafakkur doirasini kengaytiradi.

Bolalar kitobxonligini shakllantirishda maktab hamda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas'uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o'zi ham yuksak didga ega va ma'rifatli va bilimli bo'lishlari kerak. Ma'lumki, bola kitob o'qishni bilgan taqirdagina, kitob uning ma'naviy hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitob bolaning ma'naviy boyishi uchun uni ma'naviy, aqliy, estetik o'sishga yo'llashi zarur. Buning uchun dastlabki turtki oilada bolaga o'qib

berilgan birinchi kitob bo'lsa, ikkinchisi, bola otasi va onasining o'qishini eshitib, badiiy obrazlar go'zalligini tasavvur qilishi, kitob bilan ana shu birinchi va ikkinchi uchrashuv bolaning keyingi o'smirlik davrida uning ma'naviy hayotining barcha sohalari: mehnat, o'yin, musiqa, bolalar ijodi bilan bog'liq bo'lib, uni hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi zarur. Chunki, o'smir

hayotini ijodiy mehnat, ertaklar olami, fantaziyalar, o'yin va musiqasiz tasavvur etish qiyin.

Bularning barchasini kitobxonlik ham qamrab olsa, uning hayoti mazmunsiz, voqea-hodisalarning tub mohiyatini anglab olishga harakat qiladigan, turmush ziddiyatlarini tushunadigan aql-zakovatli ma'nan barkamol shaxs bo'lib yetishishiga yordam beradi. Ana shunday aql-zakovatni shakllantiruvchi, inson cha'naviy dunyosini boyituvchi vosita - bu kitob,

KITOBXONLIKDIR

Kitobxonlik - bu insonning o'z ustida ishlashi, faoliyatini ma'lum yo'nalishga burib yuborish, ongida ma'lum tuyg'ularni, e'tiqod va dunyoqarashni hosil qilish, uni o'ylashga, hayotda qanday yashashga o'rgatish, fikr yuritish, yozuvchining insonparvarlik, axloqiy, estetik, badiiy, fuqarolik nuqtai nazarini bilib olish, uning ma'naviy o'gitlarini ilg'ab olish va bular asosida o'z hayot yo'li dasturini belgilash, yozuvchi bilan munozaraga kirishish, har bir o'qigan kitobidan yangilik topish, ma'naviy dunyosini boyitishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Maktabgacha ta'limning davlat standard. O'zPFITI. T., 1995.
2. Hasanboyeva O.U. va boshqalar. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm,ziyo,2006
3. M.G.Davletshin., Sh.Do'stmuxamedova, M.Mavlonov, S.To'ychiyev. —Yosh davrlari va pedagogi psixologiya||. O'quv qo'llanma. T., 2004-y. 8.2. b.t.
4. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti